

AKTUAR MOLIYA VA BUXGALTERIYA HISOBI ILMIY JURNALI

Vol. 5 Issue 11 | pp. 116-120 | ISSN: 2181-1865

Available online <https://finance.tsue.uz/index.php/afa>

ISHLAB CHIQRISH KORXONALARIDA MAJBURIYATLARNI HISOBINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI



Nomozov Ilhomjon Ziyodullo o'g'li
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
tayanch doktoranti

Annotatsiya. Mazkur maqolada ishlab chiqarish korxonalarida majburiyatlar hisobining o'ziga xos xususiyatlarini yuzasidan taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: majburiyatlar, moliyaviy instrumentlar, moliyaviy holat, foyda solig'i.

Аннотация. В данной статье разработаны предложения и рекомендации по специфике учета обязательств на производственных предприятиях.

Ключевые слова: обязательства, финансовые инструменты, финансовое положение, налог на прибыль.

Abstract. This article develops proposals and recommendations on the specific features of liability accounting in manufacturing enterprises.

Keywords: liabilities, financial instruments, financial position, income tax.

Kirish

Xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning moliyaviy holatiga salbiy ta'sir ko'rsatib, o'zaro to'lov intizomining buzilishiga olib kelmoqda. Shu bois xo'jalik yurituvchi sub'ektlarda majburiyatlarni bartaraf etishda ularni o'z vaqtida hisobga olish va auditini to'g'ri tashkil etishni taqozo etmoqda.

Jahonda majburiyatlar hisobini moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari asosida yuritish va auditorlik tekshiruvlarini xalqaro talablar asosida tashkil etishga oid ilmiy izlanishlarga alohida e'tibor qaratilmoqda. Mazkur tadqiqotlarda xalqaro standartlar asosida majburiyatlarni tasniflash, baholanadigan va shartli majburiyatlar hisobini takomillashtirish, restruktizatsiyalash bilan bog'liq majburiyatlar hisobini yuritish, majburiyatlar auditida tahliliy amallarni qo'llash, auditorlik tekshiruvlarida majburiyatlar bilan bog'liq muhim buzib ko'rsatish holatlari bo'yicha risklarni baholash kabi yo'nalishlarda ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi

O.Ye.Nikolaeva, T.V.Shishkovalar «Liabilities» atamasini «Majburiyatlar korxonaning umumiy majburiyatlari (kreditorlar, xodimlar, davlat organlari va boshqa tashkilotlar oldida); mulkdorlar talablaridan (o'z kapital) farqli ravishda tashqi kreditorlarning korxona aktivlariga qarshi talablari (qarz mablag'lari)» — deb izohlaganlar [1]

Shu o'rinda, iqtisodchi olim A.N.Azriliyan tahriridagi buxgalteriya hisobiga oid lug'atda «Majburiyat kreditorlik qarzini bildiradi. U huquqiy tomondan — shartnoma asosida rasmiylashtirilgan fuqarolik-huquqiy munosabatlardir. Iqtisodiy tomondan — ma'lum sanada kelajakda to'lanishi zarur bo'lgan pul mablag'lari summasidir. Ko'pchilik majburiyatlarning to'lov hajmi va sanasi ma'lum» — degan fikrlar keltirib o'tilgan [2].

O.Ye.Nikolaeva, T.V.Shishkovalar «Liabilities» atamasini «Majburiyatlar korxonaning umumiy majburiyatlari (kreditorlar, xodimlar, davlat organlari va boshqa tashkilotlar oldida); mulkdorlar talablaridan (o'z kapital) farqli ravishda tashqi kreditorlarning korxona aktivlariga qarshi talablari (qarz mablag'lari)» — deb izohlaganlar [3]

J.A.Morozova ham shunga o'xshash fikrlarni ilgari surgan, «Majburiyatlar (Liabilities) firma tomonidan turli kelishuvlarni amalga oshirish natijasida paydo bo'ladi hamda tovarlar va ko'rsatilayotgan xizmatlar uchun keyingi to'lovlar uchun yuridik asos hisoblanadi» [4]

Tadqiqot metodologiyasi.

Majburiyatlar hisobi tadqiqida ilmiy abstraksiya, tahlil va sintez, taqqoslash, induksiya va deduksiya, monografik kuzatuv, ikki yoqlama yozuv metodlaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Raqamli iqtisodiyotga o'tishda buxgalteriya hisobini MHXS talablari asosida yuritish xo'jalik sub'ektlariga ma'lum ma'noda javobgarlik va moliyaviy hisobotlarni tuzish hamda ochib berishda zamonaviy talablarni tadqiq etishga chorlaydi va bu esa qator murakkabliklarni keltirib chiqarib, ularga moslashish yoki to'liq ma'noda o'zlashtirishni taqozo etadi.

Bugungi jahon iqtisodiyotida majburiyatlar hisobini xalqaro standartlar asosida yuritish va ularni ishonchli baholash, majburiyatlar bo'yicha ko'rsatkichlarni chuqur ko'rib chiqish va moliyaviy hisobotlarda to'liq aks ettirish talablari asosiy masalaga aylanmoqda.

Umuman olganda, MHXS majburiyatlarni hisobga olishda muayyan turdagi majburiyatlarni hisobga olishga ta'sir etadi va bunday xalqaro standartlarga quyidagilar kiradi:

BHXS 12-«Foyda solig'i» — tadbirkorlik sub'ektining moliyaviy holati to'g'risidagi hisobotda tan olinadigan majburiyatlarning balans qiymati kelgusida qoplanishi (to'lanishi) va tan olingan joriy davr uchun muomalalar va boshqa hodisalarni joriy va kelgusi soliqlarga bo'lgan ta'siri qay tarzda hisobga olinishida qo'llaniladi;

BHXS 19 «Xodimlarning daromadlari» — xodimlarning daromadlarini hisobga olish va ular bo'yicha ma'lumotlarni ochib berish tartibini belgilash va tadbirkorlik sub'ektlaridan quyidagilarni tan olishni talab etadi:

a) majburiyatni, qachonki xodim kelgusida to'lanadigan haq evaziga xizmat ko'rsatadigan bo'lsa;

b) xarajatni, qachonki tadbirkorlik sub'ekti xodimlarning daromadlari evaziga xodim tomonidan ko'rsatilgan xizmatdan yuzaga keladigan iqtisodiy naf yuzaga kelsa;

BHXS 32 «Moliyaviy instrumentlar: taqdim etish» — buxgalteriya hisobi xalqaro standartlarining orasida eng murakkab standartlardan biri hisoblanib, mazkur standartda

moliyaviy instrumentlarga oid axborotlarni taqdim etish tartibi belgilab berilgan. Mazkur standartda operatsion faoliyat emas, balki moliyaviy faoliyat natijasida yuzaga keladigan moliyaviy majburiyatlarni hisobga olish tartibi bayon etilgan;

BHXS 37 «Baholanadigan, shartli majburiyatlar va shartli aktivlar» — mamlakatimizda mazkur standartning o'xshashi mavjud emas. Mazkur xalqaro standartda baholanadigan majburiyatlar, savdo kreditorlik qarzlari, shartli majburiyatlar va shartli aktivlarga ta'rif berilgan hamda ularni tan olish tartibi keltirib o'tilgan. Shuningdek mazkur standartda baholanadigan majburiyatlar, shartli majburiyatlar va shartli aktivlarni baholash tartibi belgilanib, majburiyatlar bo'yicha yuzaga keladigan risklarning tabiati va ularga doir axborotlarni ochib berish yo'nalishlari bayon etilgan;

BHXS 39 «Moliyaviy instrumentlar: taqdim etish va baholash» -xo'jalik yurituvchi sub'ektlar tomonidan moliyaviy instrumentlarni baholash tartibi belgilangan ham ularga doir axborotlarni foydalanuvchilarga taqdim etish yo'nalishlari ko'rsatib o'tilgan;

MHXS 7 «Moliyaviy instrumentlar: axborotlarni ochib berish» — mazkur moliyaviy hisobotning xalqaro standartida moliyaviy instrumentlar bilan bog'liq risklarning xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning moliyaviy holati va moliyaviy natijalariga ta'siri bayon etilgan. Shuningdek mazkur standartda moliyaviy instrumentlar bilan bog'liq risklarni boshqarish yo'nalishlari belgilanib, ularga doir axborotlarni moliyaviy hisobotda ochib berish tartibi bayon etilgan.

Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, MHXSda majburiyatlarni hisobga olish va moliyaviy hisobotlarni tartibga soluvchi qator xalqaro standartlar mavjud bo'lishiga qaramay, fikrimizcha, xalqaro standartlarda majburiyatlarni hisobga olish masalalari to'liq yakunlanmagan degan mulohazaga keldik.

MHXSning konseptual asoslari xalqaro standartlarni shakllantirishning asosiy hujjati hisoblanadi va hozirgi raqamli iqtisodiyot sharoitida moliyaviy majburiyatlar buxgalteriya hisobining alohida murakkab ob'ekti bo'lganligi sababli ularni tasniflash, baholash va taqdim etish uchun alohida hujjatlarni ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir.

MHXS va BHMS o'rtasida qator konseptual farqlar mavjud bo'lsada, majburiyatlar hisobi bo'yicha ishonchli axborotlarni ochib berishda quyidagilarga e'tibor qaratishimiz zarur (1-rasm).


Shuni ta'kidlash joizki, buxgalteriya hisobida majburiyatlar bilan bog'liq risklarni to'liq va qamrovli hisobga olinmaydi, shuningdek majburiyatlarning holati va miqdoriy tavsifi, ularning o'zgarishi dinamikasi korxonaning moliyaviy natijalariga ta'sirini tahlil qilishni talab etmaydi.

Umuman olganda, milliy buxgalteriya hisobi amaliyotida moliyaviy majburiyatlarni hisobga olish mexanizmlari bozor talablari asosida haqqoniy axborotni ochib berishi bilan ajralib turishi lozim.

MHXSda ishlab chiqilgan moliyaviy majburiyatlarni hisobga olish usullari mamlakatimiz buxgalteriya qonunchiligida hali aks ettirilmagan va ushbu muammolarni bartaraf etish buxgalteriya amaliyotida xalqaro tajribaga asoslangan moliyaviy majburiyatlarni MHXSga muvofiq hisobga olish tizimini joriy etish talab etiladi.

O'zbekiston Respublikasi qonunchiligining amaldagi me'yorlari MHXS tamoyillarini amalda qo'llashga imkon berishiga qaramay, MHXS bilan tanish bo'lgan

mahalliy buxgalterlar buxgalteriya hisobining xalqaro qoidalarini amalda qo'llash bo'yicha zarur ko'nikmalarga to'liq ega emaslar.



1-rasm. Majburiyatlar hisobi bo'yicha ishonchli axborotlarni ochib berishda e'tibor qaratiladigan jihatlar¹.

Shuningdek, agar moliyaviy hisobotni tayyorlash xo'jalik yurituvchi sub'ektning moliyaviy holati, moliyaviy natijalari, pul oqimlari va moliyaviy holatdagi o'zgarishlar to'g'risida to'liq tasavvurni shakllantirish uchun yetarli ma'lumot bermasa, xo'jalik yurituvchi sub'ekt moliyaviy hisobotining tushuntirish qismida qo'shimcha ko'rsatkichlar va tushuntirishlarni o'z ichiga olishi zarur. Moliyaviy hisobotlarga qo'shimcha ko'rsatkichlar va tushuntirishlar kiritish MHXSda asosiy chora-tadbirlar qatoriga kiritilgan.

MHXS bo'yicha mavjud qoidalarni milliy buxgalteriya hisobi amaliyotida qo'llay olish va tegishli xalqaro standartlarga muvofiq milliy standartlarni moslashtirish uchun korxonalar tomonidan tuzilayotgan moliyaviy hisobotlar barcha manfaatdor tomonlar uchun birday axborotlarni taqdim etishi maqsadga muvofiqdir.

Xulosa va takliflar.

MHXS va BHMS o'rtasida qator konseptual farqlar mavjud bo'lsada, majburiyatlar hisobi bo'yicha ishonchli axborotlarni ochib berishda quyidagilarga e'tibor qaratishimiz zarur:

majburiyatlarning to'laqonli qoplanishi va ularning hisobot davridagi o'zgarishi dinamikasini to'g'ri tasniflash;

muhim bitimlar tuzishda va ular bo'yicha muomalalarni yuritib borishda tegishli risklarni tasniflash;

kelishuv va bitimlar bo'yicha ishonchli ma'lumotlarni oshkor qilish;

¹ Muallif ishlamasi.

korxona faoliyatining jiddiy risklari va ularni baholash hamda boshqarish usullari bo'yicha ma'lumotlarni oshkor qilish.

Shuni ta'kidlash joizki, buxgalteriya hisobi qonunchilik va milliy standartlarimiz majburiyatlar bilan bog'liq risklarni to'liq va qamrovli hisobga olmaydi, shuningdek majburiyatlarning holati va miqdoriy tavsifi, ularning o'zgarishi dinamikasi korxonaning moliyaviy natijalariga ta'sirini tahlil qilishni talab etmaydi.

Umumiy olganda, milliy buxgalteriya hisobi amaliyotida moliyaviy majburiyatlarni hisobga olish mexanizmlari bozor talablari asosida va haqqoniy axborotni ochib berishi bilan ajralib turishi lozim.

MHXSda ishlab chiqilgan moliyaviy majburiyatlarni hisobga olish usullari mamlakatimizning buxgalteriya qonunchiligida hali aks ettirilmagan va ushbu muammolarni bartaraf etish buxgalteriya amaliyotida xalqaro tajribaga asoslangan moliyaviy majburiyatlarni MHXSga muvofiq hisobga olish tizimini joriy etish talab etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Bolshoy buxgalterskiy slovar / Pod red. A.N. Azriliyana. –M.: Institut novoy ekonomiki, 1999. - 574 s.
2. Nikolaeva O.Ye., Shishkova T.V. Upravlencheskiy uchyot: Ucheb. posobie. –M.: URSS, 1997. – S. 321.
3. Nikolaeva O.Ye., Shishkova T.V. Upravlencheskiy uchyot: Ucheb. posobie. –M.: URSS, 1997. – S. 321.
4. Morozova J.A. Mejdunarodnye standarty finansovoy otchyotnosti. — M.: Berator-Press, 2002. –S. 143.

Copyright: © 2025 by the authors. This work is licensed under a Creative Commons Attribution- 4.0 International License (CC - BY 4.0)

